

## ZAHABIYA TASAVVUF TARIQATI

Hafizov Siyovash Oqiljon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi kafedrasi 1-bosqich magistranti.

[siyovashhafizov@gmail.com](mailto:siyovashhafizov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1392519>

**Annotatsiya.** “Zahabiya” tariqati tasavvuf tariqatlaridan biri bo‘lib, islom dinining shia mazhabiga e’tiqod qiluvchi aholisi orasida keng tarqalgan. Ushbu ilmiy tadqiqotda mazkur tariqatga doir ba’zi bir ma’lumotlar, jumladan, paydo bo‘lish shart-sharoitlari, qutblari, asoschisi, qonun-qoidalari va so‘fiylik rasm-rusmlari turli tildagi manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** zahabiya, Burzishobadiy, shia, tariqat.

## ZAHABIYYAH SECT OF THE SUFISM

**Abstract.** The “Zahabiyyah” sect is one of the Sufism sects, which is widespread among the people who believe in the Shia sect of Islam. In this scientific study, some information about this sect, including the conditions of its emergence, poles, founder, laws and Sufi paintings, were analyzed on the basis of sources in different languages.

**Key words:** Zahabiya, Burzishabadi, Shia, tariqat.

## ЗАХАБИЯ СЕКТА СУФИЗМА

**Аннотация.** Секта «Захабия» - одна из сект суфизма, получившая широкое распространение среди людей, исповедующих шиитскую секту ислама. В данном научном исследовании на основе источников на разных языках были проанализированы некоторые сведения об этой секте, в том числе об условиях ее возникновения, полюсах, основателе, законах и суфийских картинах.

**Ключевые слова:** Захабия, Бурзишабади, шииты, секта.

“Zahabiya” tariqati islom dinining shia mazhabiga doir tariqatlardan biri bo‘lib, ushbu tariqatga ergashuvchilarini Eron va boshqa davlatlarda uchratishimiz mumkin. Ushbu tariqatning paydo bo‘lish sanasini sh-q. III asrda yashab o‘tgan Abumahfuz Ma’ruf ibn Feruz Kuhiyga bog‘lashadi. Ammo ba’zi bir tadqiqotchilar ushbu tariqatning sh-q. IX asrda vujudga kelib, Safaviylar sulolasi hukmronligi davrida dastavval Xuroson, keyinchalik Sheroz hududlarida rivoj topganiga ishonishadi. “Zahabiya” tariqatiga ergashuvchilar ilhom oladigan mashhur shayxlar qatorida Junayd Bag‘dodiy, Sari Saqatiy, Ahmad G‘azzoliy va Najmuddin Kubrolarni keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda Eron Islom Respublikasining Fors, Xuroson, Ozarbayjon, Xuziston va boshqa viloyatlarida “Zahabiya” tariqatiga ergashuvchilar tarqoq holda umrguzaronlik qilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Sh-q. IX asrda “Zahabiya” tariqati dastavval Sayyid Abdulloh Burzishobadiy Mashhadiyning muridlari<sup>1</sup> orasida keng tarqaladi. Eronda Safaviylar davlati tashkil topgandan

<sup>1</sup> Madelung Vilfred, Islom firqalari. Abulqosim Sariy tarjimasi. Asotir nashriyoti. Tehron. 2002-yil. – 91. B.

so‘ng ushbu tariqat keng tarqalib, keyinchalik undan ko‘plab yangi firqalar ajralib chiqdi. Shu sababdan ham “Zahabiya” tariqatini istilohda “Tariqatlar onasi”<sup>2</sup> (مادر سلسله‌ها) deb nomlashadi.

Ba’zilarning fikricha, “Zahabiya” tariqatining idizi “Hamadoniy Kubraviya” sufiylariga borib taqaladi. Yana bir guruh tasavvuf olimlarning nazdida ushbu tariqat silsilasi “Kubraviya” tariqati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ba’zilar “Zahabiya” tariqatini Burzishobodiydan oldin sunniy mazhabiga oid tariqat sifatida talqin qilishadi. Ammo Burzishobodiydan so‘ng bu tariqat shia mazhabiga e’tiqod qiluvchilar orasida keng tarqaldi va ushbu mazhab tariqatlaridan biriga aylandi<sup>3</sup>.

### **“Zahabiya” tariqatining asoschisi haqida to‘rtta qarash mavjud. Bular:**

Birinchisi, ushbu tariqatning asoschisi Abdulloh Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy Xorazmiy<sup>4</sup>. U milodiy 1221-yilda vafot etgan. Uning ko‘niyasi “Abduljanob”<sup>5</sup> dir. U Ahmad Najmuddin Kubro nomi bilan tanilgan bo‘lib “Zahabiya” tariqati silsilasida o‘n ikkinchi shayx hisoblanadi. Najmuddin Kubro xalq orasida shayx Valiytarosh, Kubro va Toma al-Kubro nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan. Shu sababdan ham “Zahabiya” tariqati keyinchalik “Zahabiya Kubroviya” nomi bilan insonlar orasida tarqalgan<sup>6</sup>. Najmuddin Kubroning “Toma al-Kubro” (“qiyomat kuni, katta balo”) laqabi haqida quyidagi fikr mulohazani keltirishimiz mumkin: “U (Najmuddin Kubro) qaysi olim bilan bahslashmasin, albatta g‘olib chiqardi. Keyinchalik iste’molda “Toma” qismi tushib qolib “Kubro” qo‘llaniladigan bo‘ldi”<sup>7</sup>. Abdurahmon Jomiy uning “Valiytarosh” laqabi haqida quyidagicha bayon qilgan: “Vujudi ustidan g‘alaba qozongani uchun kimgaki muborak nazari tushsa valiylik darajasiga yetgan”<sup>8</sup>. Uning izdoshlari orasida Majididdin Bag‘dodiy (vaf. sh-q. 608-yil), Saadiddin Hamaviy (vaf. sh-q. 649-yil), Bobokamol Junaydiy, shayx Rizoiddin Ali (vaf. sh-q. 646) va qozi Nurulloh Shushtariy<sup>9</sup> kabi mashhur sufiylarni sanab o‘tish mumkin. Qozi Nurulloh Shushtariy “Majolis al-muminin” kitobida Najmuddin Kubro izdoshlaridan o‘n ikkitasinining nomini zikr qilib, shunday deydi: “Cunki uning (Najmuddin Kubroning) haqiqiy muridlari o‘n ikki nafar edi. Umri davomida shu o‘n ikki nafar muriddan boshqa murid qabul qilmadi. Ammo ulardan (o‘n ikki muriddan) har birlari “buyuk avliyo” edi”<sup>10</sup>. Najmuddin Kubro Ruzbahon Fasoyiyning kuyovi bo‘lib ikki nafar o‘g‘il farzandning otasi edi.

Ikkinci nazariyaga ko‘ra, “Zahabiya” tariqatining asoschisi Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniy bo‘lib, u sh-q. 740-yil (mil. 1339-yil) dunyoga keladi va 40 yil davomida insonlarni hidoyatga chorlab, sh-q. 826-yil (mil. 1423-yil) vafot etadi. U Mir Sayyid Ali Hamadoniyning shogirdi va kuyovi bo‘lib, Abdulloh Burzishobodiy uning o‘n ikkita mashhur shogirdidan biri edi<sup>11</sup>. Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniyning o‘limi quyidagicha bayon etiladi: “Sayyid Muhammad Nurbaxsh Xurosoniy isyoni davrida Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniy Temuriylar imperiyasiga qarshi isyonning

<sup>2</sup> Husayn Zahabiyy (Mirzo Bobo Sheroyi) Sayyid Abulqosim bin Abdulnabiy, Manohej anvor al-marifiy fiy sharh musboh al-shariat va muftoh al-haqiqat. Tadqiqotchi: Muhammad Boqiriy, Muhammad Ja’far. 1984-yil. – 841 B.

<sup>3</sup> Husayn Dezfulyiy. Zahabiya tarqatiga urg‘u bergen holda tasavvuf tahlili. 2006-yil. – 39. B.

<sup>4</sup> Muhammad Ma’sum Sheroyi. Taroyiq al-haqoqiy. – 211. B.

<sup>5</sup> Yofey Yamaniy Makkiy, as-Saad bin Ali bin Sulaymon.

<sup>6</sup> Asadulloh Xovariy. Zahabiya, Ilmiy tasavvuf, adabiy asaralar. Tehron. 2004-yil. – 211. B.

<sup>7</sup> Qozi Sayyid Nurullohiy Shushtariy. Majolis al-muminin. Islomiya. 1997-yil. – 74. B.

<sup>8</sup> Abdurahmon bin Ahmad Jomiy. Nafohat al-uns min hazarat al-quds. Mahdiy Tavhidiypur tadqiqoti. 1987-yil.-419. B.

<sup>9</sup> O’sha kitob – 464. B.

<sup>10</sup> Qozi Nurulloh Shushtariy. Majolis al-muminin. Islomiya. 1997-yil. – 73-74. B.

<sup>11</sup> Ahsonulloh Ali Istahriy. Tasavvuf asoslari. Ma’rifat. – 323-325. B.

asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qamoqqa olinadi va temuriyzoda Shuhruk buyrug‘iga binoan qatl qilinadi”<sup>12</sup>.

Uchinchisi, Sayyid Burzishobodiy “Zahabiya” tariqatinig asoschisi bo‘lgan degan fikrni ko‘pchilik olimlar haqiqatga yaqinroq deb hisoblashadi. Sayyid Abdulloh bin Abdulhay Ali al-Husayn sh-q. 870-880 yillar (mil. 1368-1378 yillar) oralig‘ida Eronning Rizaviy Xurosoni viloyati, Mashhad shahridagi Burzishobod qishlog‘ida dunyoga kelgan. U ustozi Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniyning kuyovi bo‘lgan. Xuttaloniydan oldin Qosim Anvordan (tav. sh-q. 837-yil) ma’rifat odob-axloqini o‘rganadi. Ammo Xuttaloniyning tarbiyasi bilan kamolga erishib, Haq taoloni taniydi. Shu sababli uning xirqa kiyishi ikki holatda ta’riflanadi: biri Qosim Anvor orqali shayx Safiyiddin Ardabiliyga (tav. sh-q. 735-yil) yetib borsa, boshqasi Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniy orqalidir<sup>13</sup>. Xuttaloniyning vafotidan so‘ng, Burzishobodiy 30 yil davomida soliklarga yo‘l boshlovchilik qildi va nihoyat, sh-q. IX asr ikkinchi yarmi boshlarida bu dunyodan ko‘z yumadi.

U ko‘plab risolalar muallifi bo‘lib, ular orasidan “Kamoliya” risolasini (irfon odoblari va tariqat yo‘lini bosib o‘tish haqida<sup>14</sup>) alohida ko‘rsatish mumkin. Aruz vazni istilohlari, irfoniy va ma’naviy qarashlarni o‘zida mujassam etgan g‘azallari ham mavjud.

To‘rtinchisi, ba‘zi ma’lumotlarga ko‘ra, Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniy o‘zining yosh shogirdlaridan biri Sayyid Muhammad Nurbaxsh Xurosoniyning g‘ayri oddiy fazilatlari haqida tush ko‘radi hamda uni nafaqat o‘zining o‘rinbosari (ustozi Mir Sayyid Ali Hamadoniyning xirqasini Sayyid Muhammad Nurbaxsh Xurosoniyga taqdim etadi) balki, uning buyuk qobiliyati haqida bashorat qiladi. O‘zining izdoshlarini ham Sayyid Muhammad Nurbaxsh Xurosoniyga topshiradi. Ammo ulardan biri ya’ni Sayyid Abdulloh Burzishobodiy unga itoat qilishdan bosh tortadi va u yerni tark etadi. O‘sha payt Xuttaloniy shunday naql qiladi: “Abdulloh ketdi” (ذهب عبد الله). Shu sababdan ham Burzishobodiy yurgan yo‘l “Zahabiya” nomi bilan “Kubraviya” tariqatining tarmoqlaridan biri sifatida rivoj topadi<sup>15</sup>.

“Zahabiya” tariqati dastavval “Kubroviya” tariqati ulug‘larining diyori xususan, Mir Sayyid Ali Hamadoniy va Xo‘ja Is’hoq Xuttaloniylarning kindik qoni to‘kilgan Xuroson hamda Xuttal o‘lkalarida keng yoyildi. Ushbu mintaqalar sh-q. IX asrdan to XI asrgacha “Zahabiya” tariqati namoyandalari uchun o‘ziga xos bir markaz vazifasini bajargan. Oradan bir necha yillar o‘tib “Zahabiya” tariqati markazi Sheruz shahriga ko‘chdi<sup>16</sup>. Najibiddin Rizo Tabriziy (silsilaning o‘ttizinchi shayxi) davrida tariqat markazi Isfahon shahriga ko‘chadi<sup>17</sup>. Najibiddin Rizo Tabriziyning sh-q. 1108 yilda vafot etishi hamda Ali Naqqiy Astahbonotiy (silsilaning o‘ttiz birinchi shayxi) shayxligi va Shoh Sulton Husayn hukmronligining oxirlarida faqihlar bosimining kuchayishi bilan yana Sheruz shahri ushbu tariqat markaziga aylanadi<sup>18</sup>. Ali Naqqiy Astahbonotiy “Zahabiya” tariqatining mashhur va muhim shayxlaridan biri Sayyid Qutbiddin Muhammad Tabriziyni tarbiyalab kamolga yetkazish orqali, ushbu tariqatning Eron hududida davom etishi va

<sup>12</sup> Abdulrafiq Haqiqat. Islom davridagi irfoniy maktablar. Kumash. 2004-yil. – 308-309. B.

<sup>13</sup> Asadulloh Xovariy. Zahabiya, Ilmiy tasavvuf, adabiy asaralar. Tehron. 2004-yil. – 353-354. B.

<sup>14</sup> Shahobiddin Amirabdulloh Burzishobodiy. Kamoliya rislolasi. Islom tarixi va Eron ixtisoslashtirilgan kutubxonasi.

<sup>15</sup> Nuriddin Mudarrisiy Chahordahiy. Tasavvufga sayohat. Ashroqiy. Tehron. 1982-yil. – 273. B.

<sup>16</sup> Hamidulloh Rafiyiy Zabliy. Zahabiya tariqati. Tehron. 2010-yil. – 61. B.

<sup>17</sup> Asadulloh Xovariy. Zahabiya. Tehron. 2004-yil. – 287. B.

<sup>18</sup> O‘sha asar. – 296. B.

keng tarqalishiga zamin yaratdi<sup>19</sup>. “Zahabiya” tariqatiga ergashuvchi sufylarni Eron hududlaridan tashqarida ham uchratish mumkin. Ularning faoliyati bugungi kunimizgacha davom etib kelmoqda<sup>20</sup>.

### “Zahabiya” tariqati silsilasi.

Muhammadali Muzan Sabzavoriyning “Tuhfayi Abbosi” nomli asari ilovasida<sup>21</sup> “Zahabiya” tariqati silsilasi quyidagicha keltirilgan:

1. Rukniddin imom Rizo;
2. Ma'ruf Karxiy;
3. Sariy Saqatiy;
4. Junayd Bag'dodiy;
5. Abuali Rudboriy;
6. Abuali Kotib Misriy;
7. Abulqosim Gurgoniy;
8. Abu Bakr Sarroj Tusiy;
9. Ahmad G'azolliy;
10. Abulnajib Suhravardiy;
11. Ammor Yosir Bidlisiy;
12. Ahmad Najmuddin Kubro;
13. Majididdin Bag'dodiy;
14. Rizoddin Ali Lolo;
15. Ahmad Jurfoniy (Gurponiy);
16. Nuriddin Abdulloh Asfaroyniy;
17. Alouddavla Samnoniy;
18. Mahmud Mazdaqoniy;
19. Mirsayyid Ali Hamadoniy;
20. Xo'ja Is'hoq Xuttaloniy
21. Sayyid Abdulloh Burzishobodiy;
22. Rashididdin Muhammad Baydvoziy;
23. Shohali Asfaroyniy;
24. Muhammad Xabushoniy;
25. G'ulomali Nishopuriy;
26. Tojiddin Husayn Tabodakoniy;
27. Muhammad Kornadhiy (Pirpolonduz);
28. Hotam Zarovandiy Xurosoniy;
29. Muhammadali Mavzan Xurosoniy;
30. Najmiddin Rizo Tabriziy;
31. Shayx Alinaqqi Astahbonotiy;
32. Sayyid Qutbiddin Muhammad Nayriziy;
33. Muhammad Hoshim Darvish Sheroziy;
34. Mirzo Abdulnabiy Sharifiy Sheroziy;
35. Sayyid Abulqosim Roz Sheroziy (Mirzobobo);
36. Jaloliddin Muhammad Majid al-Ashraf Sheroziy;
37. Mirzo Ahmad Abdulhay Murtazaviy (Xushnavis);
38. Mirzo Muhammadali Hub Haydar Ardabiliy (Abulfutuh);
39. Abdulhamid Ganjaviyon (Mir Barno Salomulavliyo);
40. Husayn Asoriyon (Salohiddin).

“Zahabiya” tariqatining nomlanishi to‘g‘risida turli xil qarashlar mavjud. Ushbu tariqatning “Zahabiya” deb nomlanish haqida aniq faktlar keltirilgan. Ammo ushbu tariqat boshqa nomlar ostida ham xalq orasida keng tarqalagan. Jumladan: Ilohiya, Muhammadiya, Alaviya, Rizoviya, Mahdiya, Kubroviya va Ahmadiya. Albatta, tariqatning yuqoridagi nomlar bilan atalishiga sabab bo‘lgan omillar ham mavjud. Masalan, ushbu tariqatning Mirzo Ahmad Abdulhay Murtazaviy (silsilaning o‘ttiz yettinchi shayxi) nomidan olingan “Ahmadiya” shakli uning

<sup>19</sup> Ahsanulloh Istaxriy. Tasavvuf asoslari. Ma'rifat. Tehron. 1959-yil. – 414-443. B.

<sup>20</sup> Madelung Vilfred, Islom firqalari. Abulqosim Sariy tarjimasi. Asotir nashriyoti. Tehron. 2002-yil. – 91. B.

<sup>21</sup> Muhammadali Sabzavoriy Tuhfayi Abbosi. 2002-yil. – 554. B.

izdoshlari tomonidan tariqat nomiga aylantiriladi<sup>22</sup>. Muhammadali Muzan Xurosoniy “Zahabiya” tariqatini “Silsilalalar onasi” (مادر سلسله‌ها) deb nomlab, quyidagicha ta’riflaydi: “Eronda Safaviyilar sulolasi hokimiyatga kelishi hamda shia mazhabining keng targ‘ib qilinishi natijasida, ushbu mazhab diniy qonun-qoidalariga mos keladigan “Zahabiya” tariqati keng ko‘lamda rivojlandi. Shu sababdan ham “Zahabiya” tariqati “Tariqatlar onasi” deb ataladi. Uning natijasi o‘laroq asrlar davomida ushbu tariqat boshqa ko‘plab yangi firqalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.<sup>23</sup>

### “Zahabiya” tariqatining taraqqiyot yo‘li.

Asadulloh Xovariy Ma’ruf Karxiy (silsilada birinchi shayx) vafotidan (mil. 815 yil) to Jaloliddin Muhammad Majidalsharof Sheroyi (silsilaning o‘ttiz oltinchi shayxi) vafotigacha (mil. 1913 yil) bo‘lgan “Zahabiya” tariqati tarixini besh qismga taqsimlaydi:<sup>24</sup>

**Birinchisi**, Zuhd va ibodat davri. Ushbu davr Ma’ruf Karxiy (silsilaning birinchi shayxi) vafoti bilan boshlanib, to sh-q. V asr oxiri ya’ni Abu Bakr Sarroj Tusiy (silsilaning sakkizinch shayxi) vafotiga qadar (mil. 1094 yil) davom etadi. Bu davrda toat ibodatda bo‘lgan shayxlarning ba’zi bir jumlalari va hikmatli so‘zlaridan tashqari boshqa yozma asar yozganliklari haqida ma’lumotga ega emasmiz.

**Ikkinchisi**, Tasavvufni targ‘ib qilish yoki uning nazriyasini yaratish davri. Ushbu davr sh-q. VI asr boshlarida Ahmad G’azzoliy (silsilaning to‘qqizinch shayxi) dan boshlanib to sh-q. IX asr oxiri ya’ni Xo‘ja Is’hoq Xuttaloni (silsilaning yigirmachi shayxi) vafotigacha davom etadi.

Xuttaloni vafotidan bir asr o‘tar o‘tmas mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga hujumi boshlanadi. Alouddin Muhammad Xorazmshohning mo‘g‘ullar qarshisida mag‘lubiyatga uchrashi, Xorazmshohlar davlati inqiroziga sabab bo‘ldi. Bu mag‘lubiyat qaysidir ma’noda boshqa tasavvuf tariqatlarida bo‘lgani singari “Zahabiya” tariqati rivojiga ham ta’sir o‘tkazdi.

**Uchinchisi**, tasavvufda turg‘unlik davri. Mazkur davr sh-q. IX asr ikkinchi yarmi ya’ni Sayyid Abdulloh Burzishobodiy (sisilaning yigirma birinchi shayxi) bilan boshlanib to sh-q. XII asr oxiri Sayyid Qutbiddin Muhammad Nayriziy (silsilaning o‘ttiz ikkinchi shayxi) vafotiga (mil. 1760 yil) qadar davom etadi. Sh-q. IX asrdan boshlab so‘fiylikdagi tawhid ta’limoti asta-sekin zaiflasha bordi va uning o‘rnini Ali (r.a) ni madh etish bu tariqat so‘fiylarining birinchi galdegisi vazifasiga aylanadi. Bu o‘zgarishlar tariqatdan boshqa maqsadlarda foydalanuvchi kimsalar uchun qo‘l keladi. Buning natijasida soxta so‘fiylar olamonni yo‘ldan og‘dirib, ularning shuurini zaharlashga urindilar. Va nihoyat, oradan biroz fursat o‘tib, xonaqoh odoblariga rioya qiladigan darvish, shayx va murid an‘analari rivoj topdi. Bu davrda yashab sayr suluk yo‘lida xizmat qilgan va o‘zidan tasavvuf ta’limotiga oid kitob qoldirgan mashhur shayxlarga misol qilib, Sayyid Qutbiddin Muhammad Mirzo Nayriziy, Muhammadali Muzan Xurosoniy (silsilaning yigirma to‘qqizinch shayxi) va Najibiddin Rizo Tabriziy (silsilaning o‘ttizinch shayxi) kabilarni keltirishimiz mumkin.

**To‘rtinchisi**, valiylik targ‘iboti davri. Ushbu davr sh-q. XII asr oxiri Muhammad Hoshim Darvesh Zahabi Sheroziy (silsilaning o‘ttiz uchinchi shayxi) hidoyati bilan sh-q. 1173 yilda boshlanib to sh-q. XIV asr boshlari ya’ni Jaloliddin Muhammad Majidalsharof Sheroyi (silsilaning o‘ttiz oltinchi shayxi) vafoti (sh-q. 1331 yil) ga qadar davom etdi. Bu davrda tasavvuf

<sup>22</sup> Asadulloh Xovariy. Zahabiya. Ilmiy tasavvuf. Tehron. 2004-yil. – 90-91. B

<sup>23</sup> Muhammadali Muzan Xurosoniy. Tuhfayi Abbosi. 2002-yil. – 554. B.

<sup>24</sup> Asadulloh Xovariy. Zahabiya. Ilmiy tasavvuf. Tehron. 2004-yil. – 407-410. B

va maorif tayhid olamidagi sir sinoatlaridan valiylik tomon yuz burdi hamda shia mazhabida tashqi odob-rusumlardan valiylik haqiqatiga, zohirdan boitinga qarab intilish kuchaydi. Ushbu davrda muridlarga shayxlik qilgan Muhammad Hoshim Darvesh Zahabiy Sheroziy, Jaloliddin Muhammad Majidalsharof Sheroziy va Abulqosim Roz Sheroziy (Mirzo Bobo, silsilaning o'ttiz beshinchchi shayxi) kabilar qalamiga mansub ko'plab asarlar zamonamizgacha yetib keldi.

**Beshinchisi**, tasavvufning zamonaviy davri. Ushbu davr sh-q. XIV asr boshlaridan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

**Xonaqoh marosimi**. Boshqa tasavvuf tariqatlarida bo'lgani singari "Zahabiya" tariqatida ham xonaqoh marosimlariga katta e'tibor qaratishgan<sup>25</sup>. Xonaqoh marosimining ramzlaridan biri shayxlarning xirqa kiyishidir. Bunda tariqat shayxining xirqasi keying shayxga kiydiriladi.

"Zahabiya" tariqatining an'analaridan yana biri "samo" (so'fiyona raqs harakatlarini ijro etish) dir. Shuningdek, ustoz shogirdlik, pir va muridlik an'analarini ham "Zahabiya" tariqatiga ergashuvchilar orasida keng tarqalgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom dinining shia mazhabi qonun-qoidalariga asoslanadigan "Zahabiya" tariqati o'rta asrlarda Eron hududlarida tarqalib, ushbu tariqatning butun Eron va unga tutash mintaqalarga tarqalishida Safaviylar davlati katta rol o'ynadi. Tariqat namoyondalari boshqa tariqat vakillari singari o'z sayri suluklarini puxta o'rganib, mazkur taqiqatning mintaqqa bo'ylab tarqalishida o'z hissalarini qo'shishdi.

Tariqat qutblari faoliyatida ham boshqa tasavvuf tariqatlarida kuzatilgani singari turli bosqichlarni, masalan, zohidlik davri, tariqatlar davri, valiylik va boshqalarni kuzatishimiz mumkin.

## REFERENCES

1. Abdurahmon bin Ahmad Jomiy. Nafohat al-uns min hazarat al-quds. Mahdiy Tavhidiypur tadqiqoti. 1987-yil.
2. Abdulrafiq Haqiqat. Islom davridagi irfoniy maktablar. Kumash. 2004-yil.
3. Ahsonulloh Ali Istahriy. Tasavvuf asoslari. Ma'rifat.
4. Asadulloh Xovariy. Zahabiya, Ilmiy tasavvuf, adabiy asaralar. Tehron. 2004-yil.
5. Hamidulloh Rafiyiy Zabliy. Zahabiya tariqati. Tehron. 2010-yil.
6. Husayn Zahabiy (Mirzo Bobo Sheroziy) Sayyid Abulqosim bin Abdunabiy, Manohej anvor al-marifiy fiy sharh musboh al-shariat va muftoh al-haqiqat. Tadqiqotchi: Muhammad Boqiriy, Muhammad Ja'far. 1984-yil.
7. Husayn Dezfuliy. Zahabiya tarqatiga urg'u bergen holda tasavvuf tahlili. 2006-yil.
8. Nuriddin Mudarrisiy Chahordahiy. Tasavvufga sayohat. Ashroqiy. Tehron. 1982-yil.
9. Madelung Vilfred, Islom firqalari. Abulqosim Sariy tarjimasi. Asotir nashriyoti. Tehron. 2002-yil.
10. Muhammadali Sabzavoriy "Tuhfayi Abbosi". 2002-yil.
11. Muhammad Ma'sum Sheroziy. Taroyiq al-haqoyiq.
12. Muhammadali Muzan Xurosoniy. Tuhfayi Abbosi. 2002-yil.
13. Qozi Sayyid Nurullohiy Shushtariy. Majolis al-muminin. Islomiya. 1997-yil.

<sup>25</sup> Hamidulloh Rafiyiy Zabliy. Zahabiya tariqati. 2010-yil. – 67. B.

14. Yofey Yamaniy Makkiy, as-Saad bin Ali bin Sulaymon.
15. Shahobiddin Amirabdulloh Burzishobodiy. Kamoliya rislolasi. Islom tarixi va Eron ixtisoslashtirilgan kutubxonasi.